

**USMON AZIM LIRIKASIDA AYOL OBRAZINING BADIY TALQINI  
ARTISTIC INTERPRETATION OF THE IMAGINE OF A WOMAN IN THE  
POETRY OF USMAN AZIM**

*Guliston davlat universiteti*

*2-bosqich magistranti*

***Mavlonova Zarnigorxon***

*g-mail: zarnigorxonabduolimova1227@gmail.uz*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada shoir Usmon Azim ijodida uchraydigan ayol obrazining badiiyligi, ayollarga xos kechinmalar oqimi, ayol obrazining psixikasini yoritib berishda qo‘llanilgan detallar haqida so‘z boradi.

**Annotation:** This article will talk about the artistry of the female image, which is found in the work of the poet Usman Azim, the flow of feminine experiences, the details used in illuminating the psyche of the female image.

**Kalit so‘zlar:** ayol, kechinma, retsepiyent, psixika, detal, badiiy matn.

**Keywords:** woman, evening, receptive, psyche, detail, artistic text.

Ayollar hamma zamonlarda ham sadoqat, matonat, mehr-shafqat va sevgi timsoli bo‘lib kelgan. Barcha san‘at turlarining markazida – ayol turgan. Adabiyotda, xususan, sharq adabiyotida ayol obrazi, ayol kechinmalarini tasvirlash holati faol hisoblanadi. Bu haqida arab tadqiqotchisi A.A.Xalaf o‘zining “Ayol obrazi” deb nomlangan maqolasida shunday fikrlarni keltirgan: “Sharq san‘atida ayol obrazi markaziy o‘rinni egallaydi. Ammo bu obraz ko‘p ma‘nolarga ega bo‘lib, turlicha talqin qilinadi. Bir tomondan, u ayolni ma‘naviy yuksak darajada bo‘lsa-da, “narsa” sifatida, dunyoviy sevgining timsoli sifatida tasvirlaydi. Ikkinchi tomondan, ayolga nisbatan dunyoviy sevgi Ollohga muhabbat ramzini ifodalaydi. Bu ikkinchi xususiyatda ayol tasviri, ayniqsa, she‘riyat va tasviriy san‘at sintezida keng qo‘llanilgan<sup>1</sup>”. O‘zbek adabiyotida ham ayol tasviri nihoyatda keng uchraydi. Jumladan, A. Oripov, X. Xudoyberdiyeva, X. Ahmedova, Z. Mirzo kabi ijodkorlar adabiy merosida ushbu mavzu salmoqli o‘rin tutadi. Badiiy asar qadr-qimmatini undagi ruhiyat tasvirini qay darajada yetkaza bilish mahorati bilan ham baholanar ekan, shoir Usmon Azim o‘z ijodida goh lirik qahramon tilidan, goh shoir tilidan berilgan tasvir-u kechinmalar ifodasi ohoriylikni ta‘minlab kelayotgani alohida e‘tiborga molikdir. Mumtoz adabiyotda mavzularning “yuragi” hisoblangan ayol tasvirida, asosan, tashqi go‘zallikdan bahs yuritilgan, to‘lib-toshib kuylangan bo‘lsa, bugungi kun lirikasida zohir tasviri bir muncha kamayib, o‘ng planni ichki ruhiy olam, botin tasviri

<sup>1</sup> Xalaf A.A. Образ женщины в Арабском искусстве. // Вестник ВГУ. Серия филология и журналистика. 2012. 118.

egallamoqda. Usmon Azimning aksariyat she'rlarida ham ushbu holatga duch kelamiz. Shoir ayol ruhiyatiga chuqurroq kirish maqsadida bu obraz ichki dunyosini tasvirlashga intiladi. Ba'zi she'rlarida sharq ayollariga xos qat'iylikni ifodalasa, ba'zilarida dunyoning barcha ayollari uchun tegishli bo'lgan muhabbatning shirin-u achchiq tasvirini aks ettiradi. Ayolning oiladagi o'rni, fidoiyligini go'zal chizgilarda berar ekan, o'quvchi – retsepiyentga ularning naqadar go'zal qalb sohibalari ekanligini uqtiradi. Quyidagi she'rga nazar tashlaylik:

U hech narsaga erisholmadi;  
 Puli yo'q, mansabi yo'q,  
 Katta tanishlari yo'q.  
 Mashinasi eski, orzusi tashlab ketgan.  
 Do'stlari allaqachon unutishgan uni.  
 Ammo onasi va xotini bor.  
 Ishdan qaytsa, baxt kelganday  
 Qarshilaydigan onasi va xotini.  
 Bu ikki ayol uni baxt deb bilar.  
 Bu odam esa butun dunyoni baxt deb biladi.  
 Butun dunyoni baxtli etgan  
 Onasi va xotini bordir bu odamning!

Erkin vaznda yozilgan ushbu "Oila" nomli she'rdan ko'rishimiz mumkinki, oilada ayolning roli beqiyos. Erkak hayotida deyarli hech narsaga: na yangi moshina, na mansab, na pul, na katta tanishlarga erishmagan. Hatto do'stga ham yolchimagan – uni allaqachon unutishgan. Inson hayotining mazmuni bo'lgan orzusi ham, afsuski, ushalmay, sarob bo'lgan. Lekin shunga qaramay, u dunyodagi eng boy va baxtli erkak. Negaki, uning borligini baxt deb hisoblovchi, uni doim qo'llab, yonida turuvchi onasi va ayoli bor. Shular tufayli har qanday yo'qsullikka qaramay, u o'zini dunyoning eng baxtli insoni deb biladi. Shoir she'r kontekstini keraksiz tafsilotlar bilan to'ldirmaydi. Lirik qahramon hayotini, oilaviy ahvolini qisqagina detallarda aks ettirish bilan cheklanadi. Ammo anglash mumkin bo'ladiki, oila kuchli moddiy qiyinchilik ostida, bir oylikning oxiri ikkinchisining boshiga ulanolmay, qarzga kiriladi, kunlab bir xil ovqat ichishga to'g'ri keladi, yordam so'rab borilgan yaqinlari eshik yopishgan, yangi kiyim esa yilda bir ushaluvchi orzudek gap. Bunday sharoitda yashash erkakning onasi va ayoli uchun ham oson kechmayotgani aniq. Shunday bo'lsa-da, ular buni norozilik bilan emas, shukronalik hissi bilan qabul qilishmoqda. She'r hayotning mohiyatini anglagan, sabr va sadoqatning timsoli sanalgan ayollarga bag'ishlovdir. Yana bir she'rda erkak ayoliga koshona qurib berishni, dengizni hovlisiga olib kelishni, osmonni poyiga to'shab qo'yishni, ko'zlarida yulduzlar porlab, butun umri parvozda o'tishini va'da qiladi. Biroq va'dasining ustidan chiqolmay boshi egiladi, ayolidan

kechirim so‘raydi. Ana shu o‘rinda Usmon Azim bizni haqiqiy Ayol obrazi bilan tanishtiradi:

“Yo‘q”,-deydi ayol kulibgina. –  
Men koshonada yashayapman.  
Men yoningizda uchib yashayapman:  
Xohlasam, dengizga boraman;  
Xohlasam, osmonga”...  
“Siz koshonasiz”,-deydi ayol. –  
Siz – dengizsiz, osmon...”.

Yuqoridagi misralar orqali ayol ruhiyati juda go‘zal ochib berilgan. Uning baxtli bo‘lishi uchun erkak o‘ylaganichalik ko‘p narsa shart emas. Uning butun umr shodon yashashi, o‘zini yettinchi osmonda his qilishi uchun sevgi va diydor yetarli. O‘ziga bo‘lgan mehrni his qilsa, ayol kishi har qanday qiyinchilikka ham chidashi mumkin. Aksi bo‘lsa, uni dunyo boyliklari bilan ham ushlab turish imkonsiz. Yashayotgan uyning koshona bo‘lishidan ko‘ra, siz yashayotgan qalbning “koshona” bo‘lishi muhimroq. Insonning eng katta omadi – turmushning baland-past yo‘llarida u bilan birga odimlay oladigan to‘g‘ri hamroh topa bilishidir, deymiz. Aslida shunday hamrohni biz o‘zimiz yaratamiz: mehr va sevgi bilan. Shoir kuchli ruhiyat tasviri aks etgan ushbu she‘riy matn orqali ayollarning naqadar inja qalb sohibalari ekanligiga urg‘u beradi. Eng go‘zal va murakkab kechinmalar ayollarga tegishlidir. Ularni mahorat bilan aks ettirish hamma ijodkorning ham qo‘lidan kelavermaydi. Buning uchun ijodkor o‘zi ham kuchli ruhiyat sohibi bo‘lmog‘i, nozik tuyg‘ularni his qila olmog‘i lozim. Usmon Azim ana shunday iste‘dod va qalb sohibidir. Uning uslubida deklamatsiyadan ko‘ra sokinlik kuchli. Biroq shunday sokinlikki, yuragingizning tub-tubida hayqiriq, g‘alayon uyg‘otadi, hislaringizni junbushga keltira oladi. Shoir o‘zining “Ayol maktubi” she‘rida ayol obrazi tilidan uning hislarini ochib berishga intiladi. Lirik qahramonning hijron azobiga giriftor bo‘lgani ma‘lum qilinadi. U maktubida ayriliq dog‘ida qolgan qo‘llarining ahvolidan so‘ylaydi:

“Qo‘llarim...qo‘llarim sog‘indi...yomon!  
Sen qaydan bilarsan qo‘llar sog‘inchi!”

–bir vaqtlar gullagan, yor bo‘yniga osilgan qo‘llari endi sarg‘ayib xazon bo‘lgan. Shu qo‘llar yorning dardlarini quvgan, kirlarini yuvgan edi, endi esa sog‘inchdan purg‘am bo‘lib, oh urmoqda, barmoqlari titrab, tinchini yo‘qotmoqda. Ikki bevaga aylangan qo‘llari o‘z laylishevalarida tonggacha sog‘inchini tushlarga aytib chiqishmoqda. Shu o‘rinda “Ikki Laylisheva – ikki sho‘rsheva” misrasida kelgan “laylisheva” so‘zi qo‘llarning faqat o‘zlariga ayon “dard tillari” borligini anglatadi, bu esa ayol qalbining tilini o‘zidan o‘zga anglaguvchisi ham, tarjimoni ham yo‘qligiga ishoradir. Shu o‘rinda savol tug‘iladi: shoir nega faqat qo‘llarining holidan xabar qilmoqda? Savolning javobi ham badiiy matn ichida keltiriladi:

“Aytsam, chidolmaysan qalbim dardiga!

Qo‘llarim holidan so‘zlayin faqat...”

Yolg‘iz qo‘llarining chekkan hijron dardi shunchalik og‘ir bo‘lsa, o‘ziniki qanchalik ekan? Ko‘rinib turibdiki, lirik qahramonning qalb kechinmalari nihoyatda og‘ir. Aytsa, tinglaguvchi bu yukni ko‘tara olmaydi, yozsa, qog‘ozdan otash sachrab, olamni kul qiladi. Bu otash uning yuragini yoqib bo‘lgan, faqat sirti qolgan, xolos. Bir ayol ichida shunchalik bardosh yashirin ekanligi kishini hayratga soladi. Bunday kuch ayollargagina xosdir. Bejizga Xalima Xudoyberdiyeva “Ayol o‘tib borar” nomli she‘rida ayollarni

“Ich-ichida yo‘lbars o‘kirib,  
Sirtidan mayin jilmaygan ayol”<sup>2</sup>  
-deb ta‘riflagan emas.

Usmon Azim lirikasida kechinmalar tasviri nihoyatda go‘zal berilishi sir emas. Shoir she‘rlarini o‘qir ekanmiz, lirik qahramon hislari ohangrabosida tebranib boramiz. Bu ruhiyat ifodasi, ayniqsa, ayollar tasvirida ta‘sirli berilgan. Ayollarning sadoqati, fidoiyligi, bardoshliligi, inja tuyg‘ulari bilan haminqadar tanishamiz, o‘rtoqlashamiz. Ayollarning hayotimizdagi ahamiyatini anglab boramiz. Adabiyotning sehriga guvoh bo‘lamiz.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Xalaf A.A. Образ женщины в Арабском искусстве. // Вестник ВГУ. Серия филология и журналистика. 2012. 118.
2. Xalima Xudoyberdiyeva. Saylanma. “Sharq” nashriyot-matbaa. Toshkent. 2000. 398 sahiha.
3. Usmon Azim. Saylanma. “Sharq” nashriyot-matbaa. Toshkent. 1995. 185 bet.
4. Usmon Azim. Sog‘inch. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent. 2007. 200 bet.

<sup>2</sup> Xalima Xudoyberdiyeva. Saylanma. “Sharq” nashriyot-matbaa. Toshkent. 2000. 309-bet. 398 sahiha.